


(dastlabki ma'lumotlar)

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6023,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (35,6 %), transport xizmatlari (19,9 %), moliyaviy xizmatlar (10,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (7,3 %) ustunlikka ega.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %






# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1024,6 mlrd. so'mga oshdi. 2018 yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 905,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

## 2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>6023,8</b>	<b>108,8</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	439,8	111,2
Moliyaviy xizmatlar	633,4	141,8
Transport xizmatlari	1197,0	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1093,4	102,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	111,6	103,6
Savdo xizmatlari	2142,8	105,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	196,5	104,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	269,5	114,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	113,8	112,4
Ijara xizmatlari	128,2	109,6
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	183,7	103,3
Shaxsiy xizmatlar	403,8	104,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,4	120,7
Boshqa xizmatlar	149,2	107,1



## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

*(dastlabki ma'lumotlar)*


2018 yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (197,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (119,7 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (76,3 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (38,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Ma'lumot uchun:** 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari - 153,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari 105,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 38,0 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 44,5 mlrd. so'm ga o'shgan.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (141,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (120,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,2 %) sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,2 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari transport xizmatlar (102,9 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (103,3 %) yashash va ovqatlanish xizmatlari (103,6 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 35,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (19,9 %), moliyaviy xizmatlar (10,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,3 %) egallaydi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

*(dastlabki ma'lumotlar)*

Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (91,3 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 6,7 % ni tashkil qiladi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 1,7 % ni tashkil etadi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,2 % ni tashkil etadi.




(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1093,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 2,5 % ga oshdi.

Eng yuqori ulush Namangan sh. (27,8 %), Yangiqo'rg'on (11,1 %), Chust (8,4 %), Namangan t. (8,3 %), To'raqo'rg'on (7,4 %), Uychi (6,9 %) va Chortoq (5,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %







## Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

Mingbuloq tumanida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushi qayd etildi va 4,4 % ni tashkil etdi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 77,7 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

### Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2142,8 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Namangan sh. (801,4 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (191,3 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (177,3 mlrd. so'm), Kosonsoy (137,4 mlrd. so'm), Namangan t (136,7 mlrd. so'm), Pop (113,3 mlrd. so'm) va Chortoq (113,0 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm





# Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Mingbuloq tumanida kuzatilmoqda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 78,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 77,5 % ni tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %





# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

*(dastlabki ma'lumotlar)*

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,5 % ni egallaydi.

## **2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va ahborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va ahborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %**

Aloqa va ahborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,7 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,2 % ni tashkil qiladi.

Ahborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va ahborotlashtirish xizmatlarining 0,5 % ni tashkil etadi.

Komputer programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va ahborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va ahborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.



# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Telekommunikasiya xizmati - 96,7 %

Nashriyotchilik xizmati -  
2,2 %

Axborot  
sohasidagi  
xizmatlar -  
0,5 %

Komputer  
programmalarini  
ishlab chiqarish  
xizmati -  
0,3 %

Radioeshittirish  
va  
teleko'rsatuv  
xizmati - 0,2 %


Kino, videofilm  
va televideniya  
dasturlari  
ishlab chiqarish  
xizmati - 0,1 %

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda, mobil aloqa xizmatlaridan ko'proq aholi (jismoniy shaxslar) foydalanishadi. Ularning ulushi - 89,4% ni tashkil qiladi. Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishda yuridik shaxslarning ulushi 10,6 % ni tashkil etadi.

(dastlabki ma'lumotlar)

## Mobil aloqa abonentlari tarkibi, %




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 633,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 141,8 % ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (97,9 %) tashkil etadi.



## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)



Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 269,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 14,2 % tashkil etdi.





# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati




Uychi	109,5 %
Namangan t	110,0 %
Chortoq	110,3 %
Mingbuloq	111,7 %
Yangiqo'rg'on	112,1 %
Uchqo'rg'on	112,5 %
Kosonsoy	112,8 %
To'raqo'rg'on	113,3 %
Chust	114,3 %
Pop	114,5 %
Norin	114,7 %
Namangan sh	115,5 %



(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 111,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 103,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 80,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,8 % ga to'g'ri keladi.



# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>6023,8</b>	<b>108,8</b>
<i>shahar:</i>		
Namangan sh	2959,2	113,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	183,3	104,2
Kosonsoy	260,8	103,7
Namangan t	325,8	104,1
Norin	210,3	106,2
Pop	298,3	105,1
To'raqo'rg'on	358,9	105,0
Uychi	261,4	103,7
Uchqo'rg'on	235,6	103,6
Chortoq	261,7	105,2
Chust	305,1	105,1
Yangiqo'rg'on	363,3	103,3



# Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

Hududlar o'rtasida Namangan shahri (2959,2 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Namangan shahri bo'yicha 113,8 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Mingbuloq (183,3 mlrd. so'm), Norin (210,3 mlrd. so'm) va Kosonsoy (260,8 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatildi.

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Namangan sh (113,8 %), Norin (106,2 %), Chortoq (105,2 %) va Chust tumanlarida (105,1 %), qayd etildi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




(dastlabki ma'lumotlar)

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahri (113,8 %) va Norin (106,2 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on (103,3 %), Uchqo'rg'on (103,6 %), Kosonsoy (103,7 %) va Uychi (103,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Mingbuloq tumanida (3,0 %) qayd etildi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




(dastlabki ma'lumotlar)

Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Namangan shahri (49,1 %), Yangiqo'rg'on (6,0 %), To'raqo'rg'on (6,0 %), Namangan (5,4 %) va Chust (5,1 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mingbuloq (3,0 %), Norin (3,5 %), Uchqo'rg'on (3,8 %), Chortoq (4,3 %) va Kosonsoy (4,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2209,7 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 342,0 ming.so'mga oshdi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati va ulushi, %





## ***Namangan viloyat statistika boshqarmasi***

*(dastlabki ma'lumotlar)*

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida - 4881,6 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida - 111,7 % kuzatildi.

**Namangan viloyat statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi**

**(69) 227-85-28**